

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 23-sentabr
N:38 (66943)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



DIQQAT! DIQQAT!

Aziz o'quvchilar, eshitmadim, o'qimadim demanglar, 23-30-sentabr kunlari «1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni» umumxalq bayrami munosabati bilan Respublika bolalar kutubxonasi hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Ustozim - faxrim» nomli internet forum o'tkazilmoqda. Siz forumda ishtirok etib, sevimli ustozlaringizni kasb bayramlari bilan tabriklash imkoniga ega bo'lasiz. Buning uchun www.kitob.uz saytiga kirib, anketani to'ldiring. Ardoqli ustozingizga bag'ishlangan dil so'zlaringiz «Tong yulduzi» gazetasida hamda www.kitob.uz saytida yoritiladi. Forum tashkilotchilari tomonidan sevimli o'qituvchingizga bayram tabrigi yuboriladi.

HAR BARMOG'I BIR HUNAR

2-bet

«KELAJAK OVOZI - 2013»

Yurtimizda iqtidorli o'quvchilarni kashf etish, qobiliyatlarini aniqlash, salohiyatlarini yuksaltirish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. «Kelajak ovozi - 2013» ko'rik-tanlovi ana shunday bellashuvlar sirasiga kiradi. Shu kunlarda mazkur tanlovning viloyat bosqichlari bo'lib o'tmoqda. Jumladan, Andijon viloyati bosqichida ishtirok etgan iqtidorli yoshlar orasida 43 nafar ijtimoiy ahamiyatga molik va amaliyotda qo'llanilishi foydali deb topilgan ijodiy ish hamda innovatsion loyihalar mualliflari tanlovning viloyat bosqichi g'olibi deb topildi. Andijon davlat tibbiyot oliygohida tanlovning jamoatchilik Kengashi a'zolari ishtirokida g'oliblarga Diplom va esdalik sovg'alari topshirildi. Tadbirda tanlov g'oliblarining texnik ishlanmalari taqdimoti keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Isfandiyor BURGUTOV,
Andijon shahri

MEN ORZULAR YOSHIDAMAN!

Vatanimiz tinch, osmonimiz musaffo, istiqbolimiz porloq. Biz yoshlar ozod yurt bag'ida yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanib ulg'aymoqdamiz.

Kuni kecha «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 22 yilligi munosabati bilan «Biz buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostida o'tgan yoshlar festivali doirasidagi turli tadbirlarda faol ishtirokim uchun «Eng yosh targ'ibotchi» nominatsiyasi bo'yicha taqdirlandim. Tashkilotchilar menga Diplom va kompyuter jamlanmasini topshirar ekan, jonjon diyorimda kichik mehnatlarning ham yuksak qadrlanishidan ko'ksim yanada g'ururga to'ldi.



Hozirda men Buxoro shahridagi 17-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiyapman. Fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish bilan bir qatorda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Buxoro viloyat Kengashi hamda «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan turli tadbirlarda ishtirok etib kelmoqdaman.

«Yosh qalamkashlar» o'rtasida o'tkaziladigan bir qator ijodiy bellashuvlarda Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandim.

2010-yil hayotimda unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Shu yili «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jam'armasi hamda «Kamolot» YOIH tomonidan o'tkazilgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Bo'sh vaqtlarimda ijod bilan shug'ul-

lanaman. She'r va kichik hikoyalari «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan» jurnali hamda viloyatimiz miqyosidagi matbuot nashrlarida e'lon qilinyapti. Mazkur yilda harakatning viloyat Kengashi muassisligidagi «Buxoro yoshlari» gazetasining eng faol yosh ijodkori deb topildim, «2013-yil – Obod turmush yili» munosabati bilan «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan o'tkazilgan «Obod ko'ngil» mavzusidagi maqolalar tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritdim.


Bugun men orzular yoshidaman. Orzu qilishdan charchamayman. Muhimi, menga bildirilgan ishonch mas'uliyatini chin dildan his qilsam, orzu-maqсадlarimga erishib boraveraman.

Zulfizar MAVLONOVA,
Buxoro shahridagi 17-maktab o'quvchisi

Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi «Barkamol avlod» ijodiyot markazi binosida O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi tuman Kengashining «Ayollar qanoti» tashabbusi hamda qator Kengash va bo'linmalar hamkorligida «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» shiori ostida «O'zbekiston – Vatanim mening» mavzusida yosh musavvirlar ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.



YOSH MUSAVVIRLAR BELLASHUVI



Unda 62 nafar yosh mo'yqalam sohiblari o'zlarining rasmlari ko'rgazmasi bilan ishtirok etdilar.

Ko'rgazmaga qo'yilgan ijodiy ishlar hamda yosh iqtidorlarning o'sha yerning o'zida chizilgan rasmlari

hakamlar hay'ati tomonidan baholanib borildi va yakuniy natijalarga ko'ra 1-o'rin Saidmirbek Abdurashidovga nasib etdi. 2- va 3-o'rinlarni Abdujalil Madaminov hamda Dilnoza Davronova qo'lga kiritdilar.

G'oliblar tashkilotchilar tomonidan «Faxriy yorliq» hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar. Tuman «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi badiiy havaskorlik dastalarining chiqishlari barchaga xushkayfiyat bag'ishladi.

Umiddjon MAMARASULOV

Qadriyat

– Ushbu ko'rgazmaga ustozim bilan birga Andijon viloyatidan keldim, – deydi qo'g'irchoqsoz Gulira'no Usmonova. – Ustozim menga milliy uslubdagi qo'g'irchoqlar yasashni qunt bilan o'rgatadilar. Kelajakda men ham ular kabi shogirdlar yetishtirib, qo'g'irchoq yasashni o'rgatmoqchiman.

– Men Mirzo Ulug'bek tumanidagi 18-maktabning 8-sinfida o'qiyman, – deydi Durdona Maqsudova. – Darsdan bo'sh vaqtlarimda opam bilan birga munchoqlardan taqinchoqlar yasaymiz. Yasagan buyumlarimizni qizlarning qo'llarida ko'rsam, zavqim keladi...

Ko'rgazmani aylanar ekanmiz, «Insonning qo'li gul», degan iboraning to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldik. Betakror san'at asarlarini ko'rib, har barmog'i bir hunar bo'lgan hunarmandlarimizga «Aslo qo'llaringiz tolmasin, milliyligimizni dunyoga targ'ib qilishdan charchamang», degimiz keldi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.
Suratlar muallifi:
Zuhra NISHONOVA

Xalqimizning qadim urf-odatlarini, milliy an'analarini uyg'unlashgan so'zanalarimiz, jimjimador naqshlar bilan bezatilgan Chust pichoqlari, kulolchilik buyumlarining dong'i yetib bormagan yurt bo'lmasa kerak, dunyoda?! Millatimiz faxri, iftixoriga aylangan ana shunday buyumlarni bor mahoratiga mehrini qo'shib yaratadigan har bir ustaning o'z uslubi, yo'nalishi bo'ladi. Yurtimizning turli go'shalarida faoliyat quritayotgan ko'plab ana shunday qo'li gul usta hunarmandlar kuni kecha Respublika «Madaniyat va san'at ko'rgazmasi» zalida jam bo'lishdi.

«Obod turmush yili»ga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etilgan «MASTER.UZ» Respublika yarmarkasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan kelgan hunarmandlar o'zlari yasagan buyumlari bilan ishtirok etdilar.

Milliy san'at namunasi hisoblangan kashtachilik, zardo'zlik, zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlardan ishlangan turli taqin-




HAR BARMOG'I BIR HUNAR

choqlar, tikuvchilik, qo'g'irchoqsozlik, yog'och o'yakorligi mahsulotlari o'rindigan mazkur ko'rgazmada qatnashayotgan hunarmandlarni suhbatga chorladik:

MAQSADIM - TIL O'RGANISHI

Yangi o'quv yilida chet tillarini o'rganishga yanada ko'proq e'tibor berilishidan xursandman. Chunki kelajakda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetiga o'qishga kirishni maqsad qilganman. Shuning uchun ham ingliz tilini mukammal o'rganishim kerak. Tumanimizdagi barcha maktablarda qo'shimcha darslar tashkil etilib, sharoitlar yaratilayotganidan mamnunman.

Yurtboshimiz orzulaganlaridek,



kamida uchta tilda bemaol so'zlashadigan, o'z sohasining yetuk ustalar, dunyodagi «manaman» degan yoshlar bilan bemaol raqobatlasha oladigan mutaxassislar bo'lishga intilaylik, aziz tengdoshlar!

Jumagul NISHONOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
qishloq xo'jalik kasb-hunar
kolleji o'quvchisi

USTABUZARMON EMAS, KASHFIYOTCHI

...Bolakay qo'liga turli asbob-uskunalarni oldida, nosoz radioni tuzatishga tutindi. Apparatning ichi unga sehrli olamday tuyuldi. U yoq-bu yog'ini titkilagan bo'ldi va uni qayta yopdi. Radioning murvatini asta buradi. Ammo u ishlamadi. Bolakay, endi otam meni yana ustabuzarmonsan, deydi, deya o'kindi. Uni zimdan kuzatib turgan otasi bolakayning yoniga kelib, «Hechqisi yo'q, bolam, kel, birgalikda tuzatamiz», dedi. Shu voqea sabab undagi texnikaga bo'lgan qiziqish yanada ortdi...

Jajji hikoyamiz qahramoni Javohir Egamberdiyev Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejining «Radio-

texnika» yo'nalishida o'qimoqda. Endilikda u radio, dazmol kabi anjomlarni, hatto kompyuterlarni ham bemaol tuzata oladi. Jamoat ishlarida faol, matematika, fizika fanlarini sevib o'rganadi, rasmlar chizadi. «Kelajak ovozi - 2012» mega tanlovining Respublika bosqichida o'zi xitiro qilgan universal qurilma bilan qatnashdi. U garchi kichik ko'ri-




nishda bo'lsa-da, radio, DVD, telefonlarni quvvatlantiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Tok manbaini esa elektr toki, batareyka hamda quyosh nuridan oladi. Qurilma sayohatni xush ko'ruvchilar uchun asqotadi.

Javohir hozirda yangi kashfiyotlar ustida bosh qotirmoqda. Endi uni «ustabuzarmon» emas, «kashfiyotchi» deb atashyapti.

Shodiyabegim SHAROFIY,
Jizzax davlat
pedagogika instituti
qoshidagi «Sayiljoy»
akademik litseyi o'quvchisi

BALIQLAR BILAN TILLASHIB...

Sarlavhani o'qib, baliqlar ham gapiradimi, deya yotgan bo'lsangiz kerak-a? Ha, ular bilan tillashsa bo'lar ekan. Jiyanim Saidakbar tabiatni, jonivorlarni juda yaxshi ko'radi. Uydagi kattakon akvariumda turli-tuman baliqlari bor. Ularni o'z vaqtida oziqlantiradi, suvlarini tozalaydi, erkalab, suhbatlashadi. Akvariumda turli ranglarda tovlanayotgan bu beozor jonzotlarni ko'rib, mening ham zavqim oshadi. Aytishlaricha, insonning asab, jigar faoliyati buzilganida, baliqlarni uzoq tomosha qilsa, ularni oziqlantirib, parvarishlasa, bu kasalliklar o'z-o'zidan chekinishi fanda isbotlangan ekan. Ko'rdingizmi, aziz tengdoshlar, barcha jonzotlar hayoti bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Agar siz ham uyingizda baliq parvarish qilsangiz, ularga alohida e'tibor qarating.



Mohinabonu HAMIDULLAYEVA,
poytaxtimizdagi 324-maktabning
5-«B» sinf o'quvchisi

TARJIMON BO'LMOQQCHIMAN

Men «Tong yulduzi» gazetasini 6-sinfda o'qiydigan singlim bilan birga mutolaa qilib boraman. Gazetada berib borilayotgan «Ingliz tilini o'rganamiz» rukni bizga bu tilni o'rganishga yaqindan yordam beryapti. Gazetaning har bir sonini taxlamga tikib qo'yamiz. Ingliz tilida chop etilayotgan so'zlarni birma-bir yod olib, singlim bilan takrorlab turamiz. Tarjimalardan ilhomlanib, kichik hikoyalarni ingliz tiliga o'girishni mashq qilyapman. Bu tilni mukammal o'rganib olsam, albatta, o'z tarjimalarimni gazetaga yubormoqchiman.

Nozima ZOIROVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol sanoat
kasb-hunar kolleji o'quvchisi



Aziz dugonalar, bayramlar orasida husn-latofat va go'zallik kuni ham borligini bilasizmi?

Ma'lumotlarga ko'ra, bu kun turli mamlakatlarda turlicha o'tkazilar ekan. Masalan, xitoylik qiz va ayollar sochlarini milliy



Zuhra olgan surat

SOG'LOM SOCHLAR - INSON KO'RKI

uslubda turmaklab, milliy kiyimlarini kiyib, o'zlariga oro berisharkan. Ularning orasida ro'zg'or yumushlari, milliy taomlar tayyorlash bo'yicha bellashuvlar o'tkazilib, g'olib bo'lganlar «Husn-latofat va go'zallik malikasi», deya tan olinarkan.

Chindan ham biz insonlar har kuni bir necha marta ko'zguga qarab tashqi ko'rinishimizni, sochlarimizni tartibga keltirishga odatlanganmiz. Ayniqsa, yuz va soch parvarishi qizlarimizni ancha tashvishga solib qo'yadi. Bu borada ularga ayrim tavsiyalar berish maqsadida Yunusobod tumanidagi «Aqva style» go'zallik salonining yetakchi mutaxassisi

Shahlo opa Kamolovaning maslahatlarini yozib oldik:

– Uzun va sog'lom sochlar qizlarimizning husni hisoblanadi. Ularga tengdoshlari havas bilan qarashadi. Ko'pincha qizlarimiz sochlari ko'p to'kiyotganidan shikoyat qilishadi. Bu insonning organizmidagi moddalar almashinuvining buzilishi, bosh miyada qon aylanishiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki soch tugunaklari bosh terisidan oziqlanadi.

Soch to'kilishiga ko'p narsalar sabab bo'lishi mumkin. Kishi ko'p asabiylashganda yuvish, bo'yash vositalaridan noto'g'ri foydalanganda ham yuqoridagi holatlarga duch keladi. Masalan, avva-


lo, sochlarimiz qaysi turkumga kirishini aniqlab olishimiz kerak, ya'ni quruq, yog'li va aralash.

Yuvish vositalarini tanlayotganimizda, ularning yaroqlilik darajasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Sochlar yuvilgandan so'ng darhol fenda quritish tavsiya qilinmaydi. Sochiqda yaxshilab artgach, dastlab yirik tishli taroqda taraladi, so'ngra 15–20 santimetr uzoqlikda quritiladi. Keyin dumaloq taroqda sochlarni istalgan usulda quritish mumkin bo'ladi. Bu usul sochlarning ildizini issiqlik ta'siridan himoyalaydi. Fendan chiqayotgan issiq oqim sochlar

ildizining tugunagini zararlaydi, oqibatda sochning rangi xiralashib, tugunak quriydi va bu sochning to'kilishiga olib keladi.

Endi soch parvarishi haqida to'xtal-sak. Ayrimlar soch ildizlarini mustahkamlash uchun duch kelgan balzamdanda foydalanishadi. Bu noto'g'ri usul. Chunki do'kon peshtaxtalaridagi rang-barang soch balzamlari soch ildizini mustahkamlamaydi. Aynan balzam tanlashda mutaxassis bilan maslahatlashgan ma'qul.

Soch to'kilishi mavsumiy bo'lishi ham mumkin. Ayniqsa, yoz faslida sochning ko'p to'kilishi kuzatiladi. Birlamchi, issiqlik ta'sirini olaylik: biz yozda boshyalang yuramiz, quyosh nurlari o'z-o'zidan sochlarimiz ildizini zararlaydi va ular to'kila boshlaydi. Bu holatdan qo'rqqmaslik kerak.



Chunki tugunakdan yana sog'lom va baquvvat soch tolasi o'sib chiqadi. Lekin befarqlik ham qilmaslik lozim. Jazirama kunlari yengil bosh kiyim kiyib yurish yoki soyabonlar tutib, quyosh nuridan himoyalanih maqsadga muvofiqdir.

Agar sochlar quruqshab to'kilsa, unga haftada bir marta bodom yog'i, piyoz sharbati surtish tavsiya etiladi. Bu usul soch ildizini mustahkamlab, barvaqt to'kilishining oldini oladi. Keyin sochlarni haftaning belgilangan kunida yog'i olinmagan qatq bilan yuvishni tavsiya qilaman. Bu o'ta quruqshagan ildizlarni yog' bilan to'yintirib, soch rangining xira tortmasligiga yordam beradi.

Mana, qizlarjon, soch parvarishiga oid bir necha tavsiyalar bilan tanishdingiz. Sizni yana qanday muammolar o'ylantiryapti? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuborishingizni so'raymiz.

LAYLO suhbatlashdi

SOG'LIQIMIZ O'Z QO'LMIZDA!

Hozirgi kunda yoshlar orasida ko'p uchrayotgan oyoq kasalliklaridan biri yassioyoqlikdir. Yassioyoqlik tug'ma va hayotda orttirilgan bo'ladi. Ushbu kasallik ko'proq bog'cha yoshidagi bolalarda va maktab yoshidagi o'quvchilarda kuzatiladi. Shifokorlarning ta'kidlashicha, yassioyoqlikning hayotda orttirilishiga sabablar turlicha bo'lar ekan. Masalan, ko'pchilik yoshlar yoz oylarida yassioyoqlikni yuzaga keltiruvchi sport poyabzal-larini kiyib yuradilar. Bunday poyabzallarni faqatgina sport mashg'ulotlarida kiyish maqsadga muvofiqdir. Yosh bolalar yassioyoqlik nimaligini tushunishmaydi, albatta. Shuning uchun ham ota-onalariga o'zlari xohlagan oyoq kiyimini oldirishga intilishadi. Noto'g'ri tanlangan poyabzal esa yassioyoqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham ota-onalarimiz farzandlarining qanday poyabzal kiyayotganiga, ularning oyoqlarining rivojlanishiga ahamiyat berishi kerak, deb o'ylayman.

Xalqimizda, kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan afzal, degan naql bor. Yassioyoqlikning oldini olish uchun o'smirlarimiz, xususan, qizlarimiz suzish yoki raqs to'garaklariga muntazam qatnashlari, doimo qomatlarini tik tutishlari, velosiped haydash kabi sport mashqlarini bajarishlari lozim. Shuningdek, maktab o'quvchilari poshnasi 2–3 sm. dan oshmaydigan poyabzal kiyishlari kerak.

Kichintoylarning oyoq kiyimlari gavda tuzilishining to'g'ri rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, sog'lig'imiz o'z qo'limizda, aziz dugonajonlar.

Sarvinoz ABDUALIMOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
258-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi

M. MUHAMMADJONOVA chizgan rasmi



Aziz qizlarjon!

Tushlik va kechki ovqatni xushta'm salatlar bilan iste'mol qilishni kim ham yoqtirmaydi, deysiz?! Keling, bugun birgalikda ulardan birini tayyorlashni o'rganaylik. Oila a'zolaringizni mazali salat bilan siylang.



XUSHTA'M SALAT

Kerakli masalliqalar:

2 dona qizil sabzi, 2 dona tuzlangan bodring, 1 banka ko'k no'xat, 1 banka konser-valangan makkajo'xori, 200 gramm tovuq go'shti, 200 gramm kolbasa, kerakli miqdorda mayonez, ta'bga ko'ra tuz.

Tayyorlanishi:

Barcha mahsulotlar somoncha shaklida to'g'raladi, makkajo'xori, ko'k no'xat, ta'bga qarab tuz,

mayonez qo'shib aralash-tiriladi. Tayyor bo'lgan salatimiz likopchada dasturxoniga tortiladi. Yoqimli ishtahal

NARGIZA tayyorladi



FOYDALI MASLAHAT

Ko'pchilik uy bekalari sut mahsulotlari solingan idishlarni issiq suvda yuvishadi, lekin bu noto'g'ri. Issiq suvda sut qoldiqlari yelimsimon moddaga aylanib, idish devoriga yopishib qoladi. Sut idishni dastlab sovuq suvda yuib, keyin issiq suvda chayish kerak.

Xamir qorilgan, tuxum ko'pirtirilgan idishlarni ham avval sovuq, keyin esa issiq suvda yuvish lozim.

ZULAYHO tayyorladi



Aziz o'quvchilar, «Iqtidorli tengdoshim» nomli yangi ruknimiz ko'pchiligingizga ma'qul bo'lganini bizga yo'llayotgan maktublaringiz mazmunidan libib, behad quvondik.

Faol yosh muxbirlarimizdan biri – Foshkent viloyati, Qibray tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi Maftuna Botirova qo'lga kiritayotgan yutuqlari, bilimga changqofigi, intiluvchanligi bilan barchaga ibrat bo'layotgan ikki dugonasi haqida yozib yuboribdi. Ulardan biri siz gazetxonlarimizga yaxshi tanish bo'lgan yosh qalamkash

Dilsora Abdusattorovadir. Foshkent viloyati, Piskent tumanidagi 1-umumta'lim maktabi o'quvchisi bo'lgan bu iqtidorli qizimizning maktab davridagi muvaffaqiyatlari bilan yaxshi tanishmiz. Maftunaxon tinib-tinchimas dugonasining shu kunlarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida hikoya qilishga chog'lanibdi.



DUGONAMGA HAVASIM KELDI

Mazkur yilimiz ham Dilsoraning hayotida unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan fan olimpiadasining III hududiy bosqichida ona tili va adabiyot fani yo'nalishida qatnashib, faxrlı 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Tumandagi 1-umumta'lim maktabini a'lo baholarga tamomlab, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Shayxontohur akademik litseyi o'quvchisi bo'ldi. Shuningdek, «Kelajak ovozi – 2013» iqtidorli yoshlar tanlovining Toshkent viloyati bosqichida adabiyot va publitstika yo'nalishi bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etib, g'olib bo'ldi. Hozirda u mazkur tanlovning respublika bosqichiga puxta hozirlik ko'rmoqda.

Dilsora erishgan va erishayotgan yutuqlari uchun maktabda unga ta'lim-

tarbiya bergan barcha ustozlari, xususan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Rahima opa Mirxoliqovadan behad minnatdor.

– Men o'z oldimga aniq bir maqsad qo'yib, unga intilib yashashni ustozim Rahima opadan, qolaversa, maktabimiz rahbari Marhabo opa Qurbonovadan o'rgandim. Rahima opa «Yilning eng yaxshi o'qituvchisi – 2001» ko'rik-tanlovida g'olib chiqdi. Marhabo opa esa Mustaqilligimizning 22 yilligi munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofoti «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlandilar. Ustozlaringa juda havas qilaman va ularga munosib shogird bo'lishga harakat qilaman, – deydi Dilsora samimiyat bilan.

Mening esa unga havasim keldi. Havas bilan yashagan inson, albatta, murodigaya yetadi, deyishadi-ku.



TAHRIRIYATDAN:

Maftunaxonning iqtidorli tengdoshlari haqidagi iliq fikrlarini o'qir ekanmiz, uning o'zi bilan ham suhbat qurishni dilimizga tugib qo'ydik. Quyida Madinabonuning inglizcha ertagini o'qiydiz. Baho berish Sizdan.

THE LITTLE BROWN

This is little . The hen has . They are yellow.

The and it's live in a little .

The hen has 3 friends. They are a a and a .

The 's name is Pem. It is black and white.

The 's name is Tug. It is brown. The 's name is Chuck.

It is white. The hen found 5 seeds, she is counting the seeds now

1 2 3 4 5 «I have 5 seeds» «Help me to plant the seeds please».

She said to her friends. The says «I don't want to help you.

I want to play with a mouse» The says «I don't want to help you. I want to play too» The says «I don't want to help you.

I want to swim.» «Can you help me to plant the seeds?»

The says to little . «Yes, we can», said they.

MADINABONU ERTAK YOZDI

SAODAT olgan suratlari



Tengdoshlarimga ibrat qilmoqchi bo'lgan yana bir dugonam Madinabonu Muhammadrizayevadir. U poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan 184-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida tahsil oladi. Uning barcha fanlardan baholari a'lo. Lekin adabiyot faniga mehri bo'lakcha. She'rilar, ertaklar yozadi.

Madinabonuning bir ibratli odati bor: bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga harakat qiladi. Yozgi ta'til kunlarini ingliz tilini o'rganishga bag'ishladi, ustozlari Ortiqboy To'rayevdan saboq oldi. Hozirda bu tilda bemalol so'zlasha oladi. Hatto o'zi mustaqil ravishda ertaklar, hikoyalar ham yozyapti. Uning yaqinda yozgan «Jigarrang mitti tovuq» nomli ertagini tahririyatga yo'llayman, ma'qul topsangiz, chop etarsiz...

DIQQATI! «KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» TANLOVI YAKUNLANDI!

Dunyo adiblaridan biri Lev Tolstoy: «Har kuni jahonning eng donishmand kishilari bilan muloqotda bo'lishdan ko'ra qimmatliroq nima bor?» deb yozgan edi. Tabiiyki, yozuvchi urg'u bergan muloqot vositasi bu, shubhasiz, kitobdir.

Darhaqiqat, yaxshi kitob o'qigan odam ko'ngliga yaqin, yaxshi insonlar bilan maroqli suhbat qurgandek bo'ladi. Buni teran anglagan kitobsevar o'g'il-qizlarimiz yanada ko'proq kitob o'qishga, uqishga intilishyapti. Shu tariqa qanchadan qancha donishlarning fikrlari, durdona hikmatlardan bahramand bo'lishyapti.

O'quvchilarimiz qalbidagi dur-u javohirlar manbai bo'lmish kitobga bo'lgan mehri yanada oshirish, kitobxon o'quvchilarimiz safini kengaytirish, shuningdek, yozgi ta'til kunlariga ma'no-mazmun baxsh etish maqsadida «Kamalok» respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida o'tkazilgan an'anaviy «KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» tanlovi yakunlandi. Unga kelgan ko'plab maktublar o'qib, muhokama qilindi. Va bir ovozdan quyidagi kitobxon o'quvchilar g'olib deb topildi:

1-o'rin – Dilshodaxon MAMADALIYEVA, Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi;

2-o'rin – Madinabonu NE'MATOVA, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumandagi 65-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi;

3-o'rin – Nilufar QAY-PANOVA, Qoragalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumandagi 11-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi.

G'oliblar «Kamalok» respublika bolalar tashkiloti va «Tong yulduzi» gazetasi-ning «Faxriy yorlig'i» hamda sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

G'OLIBLARNI QUTLAYMIZ!

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA» Respublika ko'rik-tanlovi g'oliblari taqdirlandi

Vatan tinchligi va ozodligi har bir insonning oliy maqsadidir. Bu maqsad yo'lida yosh-u keksa birdek harakat qiladi. Farzandlarimiz Mustaqillik madhini kuylab, ijod qilsalar, keksalarimiz bugungi tinch, farovon hayot uchun shukronalar aytadilar. Biz ana shunday o'tinshini e'zozlaydigan, bugunini qadrlaydigan, kelajagini ulug'laydigan xalqimiz. «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga kelgan maktablarda ham Ona diyor madhi qalamga olinadi.

Kuni kecha Respublika bolalar kutubxonasida O'zbekiston Katg ta'limi vazirligi,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika bolalar kutubxonasi hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Ashida ushbu tanlovdan ishtirok etgan har bir ijodkorni g'olib deb atashimiz mumkin. Chunki Vatan, Istiqlolni tarannum etishning o'zi oliy baxt. Biroq, tanlov o'z nomi bilan tanlov. Gazetamizning 36-sonida she'riyat, insholar va rasmlar yo'nalishi bo'yicha uchta tanlov g'oliblari ro'yxatini e'lon qilgan edik. Ushbu sahifamizda ular haqida hikoya qilamiz.

BIR BOG' BORKI...

«Rivoyat qilishlaricha, Sohibqironning o'g'li Shohruxmirzo padari buzrukvori o'g'itlariga amal qilib, bir bog' barpo etibdi. Buni ko'rgan Amir Temur bobomiz shunday dedi: Bog'ing ko'p zebo va dilkusho bo'libdi. Biroq, bunday bog'ni har bir kishi barpo etishi mumkin. Ammo dunyoda shundayin bir benazir bog' borki, uning nomi ilm-u ma'rifat bog'idir. Uning daraxtlari kitoblardir, mevalari esa tafakkur hikmatlaridir... Bu jumalarni insholar bo'yicha birinchi o'ringa loyiq topilgan Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 36-maktab o'quvchisi Madina To'lanova o'z ijodiy ishida bayon etibdi. Madina tuman «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi. Uning maqola va she'rlari «Tong yulduzi», «Beshariq tongi» kabi respublika va viloyat nashrlarida chop etilgan.

Izlanuvchan qizimiz o'z inshosini shunday yakunlaydi: «O'yinchog'ini bo'laklarga ajratib o'tirgan jajji ukajonimga qarab o'yga tolaman. Buzishni u bir zumda bajarmoqda. Tuzatishga kelganda esa soatlab ovora bo'lmoqda. Bundan o'zimga tegishli xulosa chiqaraman, biz yoshlar avlodlardan qolgan bobomeros bu yurtni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz, uni kelgusi avlodlarga ham obod holda qoldirishimiz zarur».

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-maktabning 4-sinf o'quvchisi Nilufar Qayjanova tanlovdan «Baxtli bolalik», «Tabiat» mavzularida chizgan rasmlari bilan ishtirok etdi.

- Tanlov sabab ilk bor Toshkentga keldim. Poytaxt menda katta taassurot qoldirdi. Muhtasham binolar, obod ko'chalar zavqimni oshirdi. Buning uchun, avvalo, bilim maskanimizdagi barcha ustozlarimdan, qolaversa, maktabda tashkil etilgan



TANLOVLARDA G'OLIB QIZ

«Iqtidorli o'quvchilar» to'garagi rahbari Minayim Do'shimovadan minnatdorman. Ular boshchiligida o'tkazilgan «Qushlar bizning do'stimiz» tanlovida men sardorlik qilgan guruh g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ikki tanlovdan g'olib bo'lish menga katta mas'uliyat yuklaydi.

Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Komila Shoyimova she'riyat maydoniga dadil qadamlar, yaxshi niyatlilar bilan kirib kelayotgan yoshlardan. Uning «Qaldirg'och parvozi», «Yurtning erka qizimani», «Ko'ngil chamani» nomli she'riyat to'plamlari chop etilgan. Tanlovdan bu ijodkor qizimiz 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

ISTIQLOL

Yurtimga hurlikni olib kelding sen, Elinga erklikni olib kelding sen, Shodlikni, tinchlikni olib kelding sen, Ozodlik elchisi sensan, Istiqlol!

Sen kelding, chekindi g'am-u qayg'ular, Ushaldi dildagi asriy orzular, Vatanga baxsh etding nurlu yog'dular, Ozodlik elchisi sensan, Istiqlol!

Yashamoq zavqlidir ozod diyorda, Quvonchimiz cheksiz, shodlik ziyoda, Eng baxtli xalqimiz biz bugun dunyoda, Ozodlik elchisi sensan, Istiqlol!

ENG KICHIK

ISHTIROKCHI

Asadbek Ahmedov Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 10-maktabning 2-sinf o'quvchisi. U tanlovning eng jajji ishtirokchisi hisoblanadi. Rasmlar yo'nalishi bo'yicha 2-o'rinni egalladi. Birinchi sinfdayoq harflarga rasm chizib, ustoz e'tiborini tortgan edi. Shu-shu, sinfning «rassomi»ga aylandi.

- Otam bilan Samarqandga borganimizda, «Afrosiyob» poyezdini yaqindan ko'rdim va u menga juda yoqdi. Tanlovdan aynan «Afrosiyob» rasmi bilan qatnashdim. Kamchiliklarim bo'lishiga qaramasdan, hay'at a'zolari mening chizgilarimni yuqori baholashdi. Kelgusida o'z ustimda ishlab, yanada yaxshiroq rasmlar chizaman.



«Bizning oila»

Rasmlar yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin Samarqand viloyati, Narfay tumanidagi 33-maktab o'quvchilari Ozoda Esanova va Elbek Esanovga nasib etdi.

«Sog' tanda sog'lom aql»



Muyassar Keldiyorova Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 9-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 8-sinfida o'qiydi. «Qaldirg'och» nomli kitobi bosmadan chiqqan. She'rlari viloyat matbuotida chop etilgan. Tanlovdan she'riyat yo'nalishida 3-o'rinni egalladi.

YOSHLAR OVOZI

Vatan bog', biz uning bog'bonlarimiz, U qo'rg'on, biz esa qalqonlarimiz. Imonday muqaddas el oldida burch, Biz yurtni ko'klarga ko'targuvchi kuch. Vatan, dardlaringga darmon bo'lamiz, Ishonching oglovchi inson bo'lamiz! Imonday muqaddas el oldida burch, Biz yurtni ko'klarga ko'targuvchi kuch. Bu yurt kelajagi buyuk bo'lajak, Yurtga xizmat qilsak, iqbol kulajak. Imonday muqaddas el oldida burch, Biz yurtni ko'klarga ko'targuvchi kuch.

Feruza SOYIBJON qizi, Axtamqul KARIMOV

SHARAFLI KASB EGASI

Yodingizda bo'lsa, o'tgan yili Eron poytaxti Tehron shahrida futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida yosh charm to'p ustalarimiz bir-biridan ajoyib o'yinlari bilan muxlis-u mutaxassislar nazariga fushib, yakunda «Osiyo chempioni» degan sharafli nomga sazovor bo'lib qaytishgandi. Ushbu nufuzli musobaqada O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Eron, Yaponiya kabi qit'ada o'z o'rniga ega bo'lgan kuchli terma jamoalarni mag'lubiyatga uchratib, o'zbek yoshlari hech kimdan kam emasliklarini dunyoga yana bir bor namoyon etishgandi.



Albatta, bunday g'alabalar o'z-o'zidan qo'lga kiritilmaydi. Mamlakatimizda yosh avlodning barkamol voyaga yetishi yo'lida yaratib berilayotgan sharoitlar, qolaversa, malakali murabbiylarning beqiyos xizmatlari bunday yutuqlarga zamin yaratmoqda.

Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiyi Dilshod Nuraliyev ana shunday o'z kasbining fidoyilaridan biri. O'z vaqtida O'zbekiston birinchi ligasida «Qibray – Binokor», «Madaniyat», «To'rtko'l» kabi jamoalarda muvaffaqiyatli to'p surib, muxlislar mehrini qozongan tajribali murabbiy, mana bir necha yildirki, «Paxtakor» futbol maktabida yosh avlodga futbol sir-asrorlaridan saboq berib kelmoqda. Uning ko'plab shogirdlari yurtimizning turli yosh toifalari bo'yicha terma jamoalarda muvaffaqiyatli to'p surib, Vatanimiz sharafini xalqaro arenalarda

munosib himoya qilib kelayotir.

Shu o'rinda aytish joizki, hukumatimiz tomonidan barcha sport turlari qatori futbolni farzandlarimiz orasida ommalashtirish, ushbu sport turi bilan shug'ullanuvchi yoshlar safini kengaytirish borasida qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2011-yil 19-yanvardagi «2011–2013-yillarda respublikada futbolning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va uni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori sohada qilinayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirdi.

– Futbol sir-asrorlarini o'rganayotgan yoshlarga yaratib berilgan sharoitlarga, to'g'risi, havasim keladi, – deydi murabbiy Dilshod Nuraliyev. – Shunday kezlarda bolalik yillarida o'rtoqlarim bilan notekis maydonda qo'lbola darvoza yasab, futbol

o'ynaganlarimiz yodimga tushadi. U davrlarda bugungidek, yosh avlodni ommaviy tarzda sportga jalb etish, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun sharoitlar yaratish hech kimning xayoliga kelmas edi. Shunday ekan, bugun ozod yurtida kamol topayotgan yoshlarimizga har qancha havas qilsak arziydi.

Ma'lumki, har yili Mustaqillik bayrami arafasida fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, sport kabi ko'plab sohalarda samarali mehnat qilib kelayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz Prezidentimiz tomonidan davlatimizning faxriy unvon va ordenlari bilan taqdirlanishadi. Bu yil ham mamlakatimiz futboli rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan bir qator mutaxassislar ana shunday yuksak mukofotlar bilan taqdirlanishdi. Jumladan, futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murab-

biyi Dilshod Nuraliyev «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustози» unvoniga sazovor bo'ldi.

– Davlatimizning yuksak mukofotiga sazovor bo'lish yoqimli, albatta. Fursatdan foydalanib, Prezidentimizga mamlakatimizda sportga, ayniqsa, futbolga qarata-yotgan e'tiborlari uchun alohida minnatdorchilik bildirmoqchiman. Bor kuch-g'ayratimni yosh avlodning sog'lom va barkamol voyaga yetishi yo'lida sarf etishga va'da beraman, – deydi D. Nuraliyev.

Biz ustozni davlatimizning yuksak mukofoti, shuningdek, yaqinlashib kelayotgan O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakkob etamiz. Uning shogirdlariga Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tadigan futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida omad va zafarlar tilab qolamiz.

Sa'dullo TURSINOV

Buxoroda «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, Xalq ta'limi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirliklari hamkorligida «Sog'lom avlod – yurt boyligi» shiori ostida sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

G'OLIBLAR ANIQLANDI

Musobaqaning ochilish marosimida o'g'il-qizlarni sportga jalb etish, jismoniy imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasida o'zaro teng munosabatlarni mustahkamlash, nogiron bolalarga bag'rikenglik munosabatida bo'lishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan musobaqa inklyuziv tarbiyaning muhim jihatlardan biri ekani ta'kidlandi.

Viloyat umumta'lim maktablari va jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasidagi bellashuvlarda 200 nafardan ziyod o'quvchi shashka, stol tennisi,

badminton, «Quvnoq startlar» bahslarida o'zaro kuch sinashdi.

Musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rgan Buxoro shahridagi 27-Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi o'quvchilari 20 ta medal egasiga aylandi. Shu maktabning 8-sinf o'quvchisi Marjona Sa'dullayeva 1 oltin va 1 kumush medaliga sazovor bo'ldi.



G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

BOKSCHILARIMIZ MUVAFFAQIYATI

Kiyev shahrida bo'lib o'tgan 15-16 yoshli bokschi-lar o'rtasidagi jahon chempionatida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zolari muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.



Kozimbek Mardonov 70 kilogramm vazn toifasidagi birinchi jangida beloruslik Artyom Vavilauni katta ustunlik bilan yengib, chorak finalga qadar yetib bordi.

57 kilogramm vazn toifasida musobaqani ikkinchi davradan boshlagan Boburmirzo Tolibov ozarbayjonlik Parviz Guliyevni, Oybek Jo'rayev 48 kilogramm vaznda isroillik Mixail Ostroumovni mag'lubiyatga uchratib, chorak

final bosqichida o'z ishtiroklarini yakunlashdi.

O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Eldor Merjanov vakillarimiz orasida eng muvaffaqiyatli ishtirok etgan sportchimiz bo'ldi. Iqtidorli bokschi yarim finalgacha bo'lgan bahslarda italiyalik Samuel Mantsarelani, litvalik Vitautas Balsisni va gruziyalik Georgi Kxarabadzeni mag'lubiyatga uchratib, bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Shoh MUHAMMAD

QUM VA TOSH

Bir rivoyatda aytilishicha, ikki do'st cho'lda ketishayotgan ekan. Sayohatlari davomida ular bir masala ustida bahslashib qolishibdi va ulardan biri do'stining yuziga tarsaki tortib yuboribdi. Tarsaki yegan yigit hech nima demabdi-yu, qumga shu so'zlarni yozib qo'yibdi: «Bugun eng yaqin do'stim yuzimga tarsaki tushirdi».

Ular vodiya yetgunlaricha yurishdan to'xtashmabdi. Vodiya esa cho'milmoq-

chi bo'lishibdi. Cho'milayotgan paytda birdan tarsaki yegan yigit cho'ka boshlabdi, lekin do'sti uni qutqarib qolibdi. Qirg'oqqa chiqib olgan yigit sal naridagi toshga: «Bugun eng yaqin do'stim hayotimni saqlab qoldi», deb yozibdi. Shunda do'sti undan so'rabdi:

– Men seni urganimda, qumga yozganding, nima uchun endi toshga zo'yapsan?

Yigit shunday javob beribdi:

– Bizni kimdir xafa qilganida, kechirim shamollari uchirib ketishi uchun uni qumga yozishimiz, bizga kimdir yaxshilik qilganda esa, uni toshga yozishimiz kerak, toki hech qanday shamol uchirib ketolmasin.

Ingliz tilidan Hilola ERGASHEVA tarjimasini



Molira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlari



O'qing, qiziq!

MASHHURLAR HAYOTIDAN

Mashhur amerikalik muhandis, elektr chirog'ining ixtirochisi Edisonning tanish-bilishlari uning hovlisidagi bog' eshigi nega qiyin ochilishidan ancha vaqt hayron bo'lib yurishdi. Kunlarning birida tanishi bu haqda zorlanib dedi:

– Shunday buyuk iqtidor sohibi bo'lsangiz-u, durustroq eshik o'rnatmaganingizga hayronman.

– Menimcha, – javob qildi Edison, – eshik risoladagidek. U uydagi vodoprovod nasosi bilan birlashtirilgan. Kirayotgan har bir odam eshikni ochish asnosida bakka yigirma litr suv chiqarib beradi.

Nemis tarixchisi Teodor Mommzen

nihoyatda mutaassib odam bo'lganidan uyi-ga elektr o'tkazilishiga ruxsat bermagandi. Ammo bir kuni uyi-ga kirdi-yu, elektr lampochkalar yonib turganini ko'rdi. Xotini uyi-ga elektr o'tkazganini bilgach, qattiq norozi bo'ldi va elektr lampochkani hech qachon yoqmasligini aytdi.

– Yaxshi, – dedi xotini bosiqlik bilan, – biroq, sen o'z chirog'ingni yoqish uchun doim gugurt izlaysan. O'sha paytda elektr lampochkani yoqsang, gugurtini osongina topasan.

Bu gapni eshitib, Teodor uzoq o'ylanib qoldi. Oxirida shunday dedi:

– To'g'ri, elektr ba'zi-ba'zida foyda ham keltiradi.

BONU tayyorladi

Biladimmi? JONIVORLAR OLAMI



Bolajonlar, «Jonivorlar olami» sahifamizni muntazam kuzatib borayotganingizni maktablaringiz orqali o'qib, quvondik. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 5-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi Mubinaxon

Nabiyeva itlarning qanday xususiyatlarga ega ekanligi haqida ma'lumot berishimizni so'rabdi. Bugun sizlarga ana shu jonivorlar to'g'risida ma'lumot tayyorladik. Ul nafaqat Mubinaxonga, balki ko'pchiligingizga qiziqarli bo'ladi, degan umiddamiz.

Ma'lumotlarga qaraganda, itlarning tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ayrim olimlarning fikricha, itlar bo'rilar va shoqollar chatishishidan paydo bo'lgan. Itning yovvoyi zoti bo'ri, chiyabo'ridir. Bu jonivor mezolit davrida xonakilashtirilgan bo'lib, uning 320 dan ortiq turi mavjud. Itlar yiliga ikki marta bolalaydi. Urg'ochi it o'n ikki-tagacha kuchukchani dunyoga keltirishi mumkin. Itning yana bir g'aroyib xususiyati, u uxlashdan avval o'z o'qi atrofida 3 marta ag'anab aylanadi. It rangi farqalay olmaydi. Ammo hid bilish a'zolari juda yaxshi rivojlangan. Itlarning

Shpits, Layka, Kamandor, Ovcharka, Labrador, Tereri kabi turlari mavjud. Uy sharoitida boqish uchun ko'pincha Shpits nasliga mansub itlarni tanlashadi. Chunki unchalik katta bo'lmagan yungi qalin bu itlar xo'jayini uchun har narsaga tayyor. Layka nasliga mansub itlar ham qalin do'st, mehribondirlar. Kamandorlar esa juda katta va bahaybat bo'lib, bolalarni yaxshi ko'rishadi.

Xullas, itlarni mehr bilan parvarish qilsangiz, ular bu yaxshiligingizni sira unutishmaydi, sizga sadoqat bilan xizmat qilishadi.

ZUBAYDA tayyorladi

TOPISHMOQLAR

Ko'kka chiqdi olov shar,
Bizga ziyo ulashar.

Guli to'rtta yarim oy,
Boshginamdan olar joy.

Gulsiz meva qiladi,
Ko'p yesang, til shiladi.

Vujudimda yuradi,
Duk-duk urib turadi.

Xorazm viloyati, Xiva shahridagi 1-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Umid KOMILIY tayyorladi

Bosh muharrir
Feruz JALILOVA

Tahrir Hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV
Musahhah
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 47425
Buyurtma N: J 8105

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOC'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.